O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

# 60820100 – O‘rmonchilik va aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari

Toshkent - 2023

ЎзР ОЎМТВ
Буйруқ № 367
21 08 2023

**ISHLAB CHIQILGAN:**

- Toshkent davlat agrar universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «21» august dagi 367 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA


| T/r | | bet |
|---|---|---|
| 1. | *60820100–O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish* bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi…………………………………… | 4 |
| 1.1. | Qo'llanish sohasi ……………………………………………………………………… | 4 |
| 1.1.1. | *60820100–O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish* bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talabining qo'llanilishi……………………………… | 4 |
| 1.1.2. | Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari……………………………………… | 4 |
| 1.2. | *60820100 – O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi………………………… | 4 |
| 1.2.1. | *60820100 – O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari………………………… | 4 |
| 1.2.2. | *60820100 – O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'yektlari…………………… | 5 |
| 1.2.3. | *60820100 – O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari…………………………… | 5 |
| 1.2.4. | *60820100 – O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari……………………………………… | 5 |
| 2. | *60820100– O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompentensiyalariga qo'yiladigan talablar. | 7 |
| 2.1. | Umumiy kompetensiyalar……………………………………………………………… | 7 |
| 2.2. | Kasbiy kompetensiyalar………………………………………………………………… | 7 |
| 2.3 | Umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga quyidagi talablar……………………………………………………… | 7 |
| 2.3.1 | Kvalifikatsiya…………………………………………………………………………… | 7 |
| 2.3.2 | *60820100 - O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish* ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar…………………………………………………………………………………… | 8 |
| 2.3.3 | 60820100 - O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi ………………………………….. | 8 |
| | Bibliografik ma'lumotlar……………………………………………………………… | 10 |
| | Kelishuv varag'i………………………………………………………………………… | 11 |

**1. *60820100 – O‘rmonchilik va aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish* bakalavriat ta'lim yo‘nalishining umumiy tavsifi**

***60820100 – O‘rmonchilik va aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish*** ta'lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

**1.1. Qo‘llanish sohasi.**

**1.1.1. *60820100 – O‘rmonchilik va aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish* ta'lim yo‘nalishi malaka talabining qo‘llanishi.**

Malaka talabi *60820100 – O‘rmonchilik va aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish* ta'lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

**1.1.2. Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari:**

– mazkur ta'lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv hodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor - o‘qituvchilari;

– ta'lim yo‘nalishining o‘quv reja va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

– bakalavriat bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

– ta'limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

– oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

– oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– oliy ta'lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

**1.2. *60820100 – O‘rmonchilik va aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish* ta'lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

**1.2.1. *60820100 – O‘rmonchilik va aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish* ta'lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.**

***60820100 – O‘rmonchilik*** – “O‘rmon xo‘jaligi” ta'lim sohasiga oid yo‘nalish bo‘lib, yer, suv, energetik va moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanishni oshirish maqsadida o‘rmonlarni ko‘paytirish, o‘rmon mahsulotlarini ishlab chiqarish, ko‘chat yetishtirish, o‘rmon xo‘jaligining urug‘ va ko‘chatlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda ishtirok etish, o‘rmonchilik ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, o‘rmon mahsuldorligi va sifatini oshirish, kasbiy faoliyatida texnik vositalardan oqilona foydalanish usul va uslublari majmuasini qamrab oladi.

**1.2.2. *60820100 – O‘rmonchilik va aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish* ta'lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

– O‘rmon xo‘jaligi agentligi va uning tizimidagi tashkilotlar, o‘rmon xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan bog‘liq davlat va nodavlat tashkilotlar, korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari, va boshqalar;

– yer, suv, energetik va moddiy – texnika resurslari, tabiiy va sun'iy o‘rmonlar, kimyoviy va biologik vositalar;

– texnik asbob uskunalari;

– o‘rmon xo‘jaligi texnikalari;

– agrotexnik tadbirlar;
– o'rmon xo'jaligining urug' va ko'chatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishda ishtirok etish;
– o'rmonchilikda qo'llaniladigan ishlab chiqarish jarayonlari;
– ilmiy tadqiqot jarayonlari;
– o'rmon xo'jaligi korxonalari va tashkilotlarining boshqaruv tizimlari.

*60820100 – O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalavriatning kasb ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.

**1.2.3. *60820100 – O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari**

- tashkiliy-boshqaruv
- texnologik-ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;
- ilmiy-tadqiqot;
- loyiha-texnologik;
- tadbirkorlik.

**1.2.4. *60820100 – O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.**

*60820100 – O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'yektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

**Tashkiliy-boshqaruv xamda texnologik-ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:**

- o'rmonchilikda tegishli texnologiya va texnik vositalardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarini hisobga olish va baholash;
- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy va mehnat resurslarini rejalashtirish;
- ishlab chiqarish jarayonini boshqarish;
- boshqaruv qarorni qabul qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimlaridan foydalanishni hisobga olgan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va hayot faoliyati xavfsizligi, texnika xavfsizligi talablari asosida o'rmon xo'jaligi ishlab chiqarish jarayonlari monitoringini amalga oshirish;
- kasbiy muammolar yechimini topish;
- ijrochi jamoa ishini tashkil qilish;
- fikrlar xilma-xilligi sharoitida boshqaruv qarorini qabul qilish;
- birlamchi ishlab chiqarish bo'g'ini ishini tashkil qila olish va boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, bajarish va nazorat qilish hamda ish natijalarini baholash ***qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.***
- o'rmon barpo etish va parvarishlashda texnologik kartadan foydalanish;
- o'rmonchilikda samarali va resurs tejamkor faoliyatni tashkil eta olish;
- o'rmon barpo etish va parvarishlash bo'yicha ishlab chiqarish jarayonlari, agrotexnik tadbirlarning bajarilishi sifatini nazorat qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda keng qo'llash;
- ilg'or texnologik jarayonlarni qo'llash;
- ilmiy asoslangan tizimlarni qo'llash va tavsiya qilish;
- yangi samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va oqilona foydalanish;
- tabiiy resurslarni muhofaza qilish va hayot faoliyati xafsizligi qoidalariga rioya qilish;
- xizmat ko'rsatish sohasi meyoriy - huquqiy hujjatlaridan foydalana olish;

- o‘rmonchilik sohasida servis xizmati ko‘rsata olish.

**Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- dala tajribalarida variantlar va takrorlanishlarni joylashtirish, kuzatuvlar o‘tkazish;
- ilmiy ish hisoboti uchun ma’lumotlar tayyorlash;
- qaror qabul qilish, bilimlarni amaliyotda qo‘llash, ish samaradorligi va sifatiga javob berish;
- respublika hamda xorijda chop etilgan o‘rmonchilikka oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o‘rganish;
- o‘rmonchilik bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;
- mavzu (topshiriq) bo‘yicha ilmiy ma’lumotlarni yig‘ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma’lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;
- ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish *qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.*

**Loyihaviy-texnologik faoliyatda:**

- istiqbolli shakl va navlarni ochiq yerlarda plantatsiyasini barpo etish loyihasini ishlab chiqish va biologik materiallarni tayyorlash;
- o‘rmonlar barpo etish va parvarishlash loyihasini ishlab chiqish, o‘rmon ko‘chatzorlari tuzish loyihasini ishlab chiqish;
- o‘rmon barpo etish va parvarishlash agrotexnikasini texnologik qismini ishlab chiqish;
- loyhalashtirishda zamonaviy axborot kommunikatsion va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish.

**Tadbirkorlik faoliyatida:**

- o‘rmon xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan bog‘liq yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;

## 2. *60820100 – O‘rmonchilik va aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

### 2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- zaruriy gumanitar va tabiiy ilmiy fanlar asoslarini, fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O‘zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga, dunyoqarash bilan bog‘liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo‘lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiy va matematik fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilishi;
- axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
- tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tasavvur hamda e’tiqodga, o‘zini jismoniy chiniqtirish o‘quv va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

### 2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- o‘rmonchilikda tegishli texnologiya va texnik vositalardan foydalanish samaradorligi ko‘rsatkichlarini hisobga olish va baholash;
- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moddiy va mehnat resurslarini rejalashtirish;
- ishlab chiqarish jarayonini boshqarish;
- boshqaruv qarorni qabul qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimlaridan foydalanishni hisobga olgan holda ishlab

chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va hayot faoliyati xavfsizligi, texnika xavfsizligi talablari asosida o‘rmon xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonlari monitoringini amalga oshirish;
- kasbiy muammolar yechimini topish;
- ijrochi jamoa ishini tashkil qilish;
- fikrlar xilma-xilligi sharoitida boshqaruv qarorini qabul qilish;
- birlamchi ishlab chiqarish bo‘g‘ini ishini tashkil qila olish va boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish, bajarish va nazorat qilish hamda ish natijalarini baholash qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.
- o‘rmon barpo etish va parvarishlashda texnologik kartadan foydalanish;
- o‘rmonchilikda samarali va resurs tejamkor faoliyatni tashkil eta olish;
- o‘rmon barpo etish va parvarishlash bo‘yicha ishlab chiqarish jarayonlari, agrotexnik tadbirlarning bajarilishi sifatini nazorat qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda keng qo‘llash;
- ilg‘or texnologik jarayonlarni qo‘llash;
- ilmiy asoslangan tizimlarni qo‘llash va tavsiya qilish;
- yangi samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va oqilona foydalanish;
- tabiiy resurslarni muhofaza qilish va hayot faoliyati xafsizligi qoidalariga rioya qilish.
- xizmat ko‘rsatish sohasi me’yoriy - huquqiy hujjatlaridan foydalana olish;
- o‘rmonchilik sohasida servis xizmati ko‘rsata olish.
- dala tajribalarida variantlar va takrorlanishlarni joylashtirish, kuzatuvlar o‘tkazish;
- ilmiy ish hisoboti uchun ma’lumotlar tayyorlash;
- qaror qabul qilish, bilimlarni amaliyotda qo‘llash, ish samaradorligi va sifatiga javob berish;
- respublika hamda xorijda chop etilgan o‘rmonchilikka oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o‘rganish;
- mavzu (topshiriq) bo‘yicha ilmiy ma’lumotlarni yig‘ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma’lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;
- ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.
- o‘rmonlar barpo etish va parvarishlash loyihasini ishlab chiqish, ko‘chatzorlar tuzish loyihasini ishlab chiqish, o‘rmon barpo etish sxemalarini tuzish;
- o‘rmon barpo etish va parvarishlash agrotexnikasini texnologik qismini ishlab chiqish;
- mahsulotlar sifatini baholashda ixtisoslikdan kelib chiqan holda chet el va vatanimizda qo‘llaniladigan usullarni amalda qo‘llay olish;
- loyihalashtirishda zamonaviy axborot kommunikatsion va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish.

**2.3. Umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga quyidagi talablar.**

Talabalar umumiy va kasbiy kompetentsiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketmaketligida kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta’minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlar – ta’lim yo‘nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetentsiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo‘llab quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetentsiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratilgan.

**2.3.1. Kvalifikatsiya**: o'rmonchi, landshaft-dizayner.

**2.3.2.** ***60820100 - O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish*** **ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:**

| O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat | Ajratilgan kredit |
|---|---|---|
| Majburiy fanlar | 5400 | 180 |
| Tanlov fanlar | 1020 | 34 |
| Malakaviy amaliyotlar | 660 | 22 |
| Yakuniy davlat attestatsiyasi | 120 | 4 |

**2.3.3.** ***60820100 - O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish*** **ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:**

| T.r | Fanning malakaviy kodi | O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Semestri |
|---|---|---|---|---|---|
| **1.00** | | **Majburiy fanlar** | **5400** | **180** | |
| 1.01 | O'EYTB1204 | O'zbekistonning eng yangi tarixi | 120 | 4 | 2 |
| 1.02 | DINB1104 | Dinshunoslik | 120 | 4 | 1 |
| 1.03 | FALB1604 | Falsafa | 120 | 4 | 6 |
| 1.04 | XJTNB1108 | Xorijiy til | 240 | 8 | 1,2 |
| 1.05 | O'T O'SQB1104 | O'zbek (rus) tili: O'zbek tilini sohada qo'llash | 120 | 4 | 1 |
| 1.06 | JMSB1204 | Jismoniy madaniyat va sport | 120 | 4 | 2 |
| 1.07 | OMTB1204 | Oliy matematika | 120 | 4 | 2 |
| 1.08 | O'RMHB1104 | O'rmon huquqi | 120 | 4 | 1 |
| 1.09 | EAMMB1104 | Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi | 120 | 4 | 1 |
| 1.10 | BO'FZB1108 | Botanika va o'simliklar fiziologiyasi | 240 | 8 | 1,2 |
| 1.11 | O'XICHMB1106 | O'rmon xo'jaligi ishlab chiqarishini mexanizatsiya-lashtirish | 180 | 6 | 1 |
| 1.12 | AKTB1204 | Axborot-kommunikatsion texnologiyalar | 120 | 4 | 2 |
| 1.13 | MGTCHB1204 | Muhandislik geodeziyasi va topografik chizmachilik | 120 | 4 | 2 |
| 1.14 | TPAKB1308 | Tuproqshunoslik va agrokimyo | 240 | 8 | 3,4 |
| 1.15 | DENDB1312 | Dendrologiya | 360 | 12 | 3,4 |
| 1.16 | O'RMCHB1308 | O'rmonchilik | 240 | 8 | 3,4 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1.17 | O'ENFTB1308 | O'rmon entomologiyasi va fitopatologiyasi | 240 | 8 | 3,4 |
| 1.18 | AYAJKB1308 | Aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish | 240 | 8 | 3,4 |
| 1.19 | O'TO'TB1508 | O'rmon taksatsiyasi va o'rmon tuzish | 240 | 8 | 5,6 |
| 1.20 | MBG'GB1510 | Manzarali bog'dorchilik va gulchilik | 300 | 10 | 5,6 |
| 1.21 | MADO'RB1512 | Madaniy o'rmonlar | 360 | 12 | 5,6 |
| 1.22 | O'RMSELB1506 | O'rmon seleksiyasi | 180 | 6 | 5 |
| 1.23 | O'RMB1712 | O'rmon melioratsiyasi | 360 | 12 | 7,8 |
| 1.24 | BPQLB1708 | Bog'-park qurilishi va loyihalashtirish | 240 | 8 | 7,8 |
| 1.25 | O'XIICHTEB1706 | O'rmon xo'jaligi iqtisodiyoti va ishlab chiqarishini tashkil etish | 180 | 6 | 7 |
| 1.26 | O'YOB1806 | O'rmon yong'inlari | 180 | 6 | 8 |
| 1.27 | LALYEO'BEB1806 | Lalmikor yerlarda o'rmon barpo etish | 180 | 6 | 8 |
| **2.00** | | **Tanlov fanlar** | **1020** | **34** | |
| 2.01 | | Tanlov fanlar | 1020 | 34 | 3,4,5,6,7,8 |
| | | **Jami** | **6420** | **214** | |
| | MALAMAL1222 | Malakaviy amaliyotlar | 660 | 22 | 2,4,6,7 |
| | | Yakuniy davlat attestatsiyasi | 120 | 4 | 8 |
| | | **Jami** | **780** | **26** | |
| | | **HAMMASI** | **7200** | **240** | |

## Bibliografik ma'lumotlar

UO'K 635.9, 634.9 Guruh T 55

OKS 01.040.01

**Tayanch so'zlar:**

O'rmonchilik, o'rmon barpo etish va parvarishlash agrotexnikasi, o'rmon ko'chatzori, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, o'quv reja va, fan dasturi (bakalavriat dasturi), o'quv jarayoni, loyiha-texnologik faoliyat, xizmat ko'rsatish, malaka amaliyoti, atrof-muhitni muhofaza qilish va hayot faoliyati xavfsizligi, texnika xavfsizligi, ishlab chiqarish texnologik, tashkiliy-boshqaruv, loyiha-texnologik, ilmiy-tadqiqot jarayonlari, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, biznes-loyiha.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari**

**ISHLAB CHIQILGAN:**

**Toshkent davlat agrar universiteti**

Birinchi prorektor____________**S.Y. Islamov**

2023 yil «__10__» ___07______

M.O'.

**KELISHILDI:**

**O'zbekiston Respublikasi**
**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

Direktor ______________ **Sh.U. Yakubov**

2023 yil «__21__» __08__________

M.O'.

**Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti**

Rektor____________ **K.Komilov**

2023 yil «__17__» ___07________

M.O'.

**O'zbekiston Respublikasi**
**O'rmon xo'jaligi agentligi**

Direktor o'rinbosari ________**G'.Qurbonov**

2023 yil «__19__» ___07________

M.O'.

**O`rmon xo`jaligi ilmiy tadqiqot instituti**

Direktor ____________**S.A.Arabov**

2023 yil «__18__» ___07________

M.O'.

**Toshkent Shahar hokimligi huzuridagi Obodonlashtirish bosh boshqarmasi**

Boshqaruvchi ________**R.A.Yusupov**

2023 yil «__20__» ___07.________

M.O'.

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**
**60820100 – O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish bakalavriat mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida**

# KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent vil. "10" 07 2023-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori, prof. S.Y.Islamov, O`rmon xo`jaligi ilmiy tadqiqot instituti direktori S.A.Arabov, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti rektori K.Komilov birgalikda TDAUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60820100 – O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish bakalavriat mutaxassisligi

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5847-son farmoni, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-iyundagi "Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-279-son Qarorlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**O`rmon xo`jaligi ilmiy tadqiqot instituti direktori** **S.Arabov**

**Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti rektori** **K.Komilov**

**Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori, professor** **S.Islamov**